

O'ZBEK PEDAGOGIK TERMINOLOGIYASI RIVOJIDA INGLIZ  
TILIDAN O'ZLASHGAN SO'ZLARNING AHAMIYATI

Jumanazarova Laylo

*Termiz davlat pedagogika instituti Magistratua bo'limi 1-bosqich  
magistranti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada o'zbek pedagogik terminologiyasining boyish manbalari, so'nggi yillarda ingliz tilidan kirib kelgan atamalar, ularning tarixi, bu so'zlarning o'quv jarayonidagi ahamiyati, o'zbek zamonaviy pedagogikasi rivojidagi o'rni haqida ma'lumotlar, zamonaviy ta'lim metodlari va texnologiyalarining milliy pedagogikamizga kirish jarayonlari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar.** *Pedagogik terminlar, kredi-modul tizimi, inklyuziv ta'lim, kognitiv uslub, keys-stadi, mnemonika, milliy pedagogika*

Ma'lumki, ingliz tili bugungi kunda global kommunikatsiyaning asosiy tili sifatida qabul qilingan. O'zbek pedagogik terminologiyasiga ingliz tilidan kirgan so'zlar va iboralarning o'rni va ahmiyati tobora ortib bormoqda. Ushbu maqolada ingliz tilidan kirgan terminlarning o'zbek pedagogika va terminlogiya sohalariga ta'siri va rivojlanishida tutgan o'rni tahlil qilinadi.

Ingliz tilidagi pedagogik terminlar mustamlakachilik davrida yer yuzi bo'ylab keng tarqaldi va boshqa xalqlar, agniqsa, fikrlashi hamda tafakkuri amaliy hayotga moslashgan, hali ijtimoiy jihatdan yetarlicha rivojlanib ulgurmagan mustamlakalarda yasovchi xalqlar pedagogikaga oid terminlarni ingliz tilidan boricha yoki transliteratsiya qilib o'zlashtira boshladi.

Qadimda o'zbek terminologiyasining boyish manbasi fors-tojik va arab tillari bo'lgan bo'lsa, hozirda bu borada inglizcha hamda ruscha-baynalminal so'zlar ustunlik qilmoqda. Zamon rivojlangani sari, ayniqsa, ingliz tilidan o'zbek pedagogik terminologiyasiga kirib kelayotgan terminlar soni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunga kelib pedagogikaga oid ko'plab tillarda ishlatalib kelinayotgan lotin va grek o'zaklaridan rivojlangan so'zlar ingliz tili orqali yuzlab boshqa tillari shu qatorda o'zbek tiliga ham o'zlashtirildi. Ularning asosi lotin hamda grek tillariga borib taqalsa-da, o'zbek tiliga kirib kelish manbasi aynan ingliz tilidir.

O'zbek pedagogik terminologiyasiga ingliz tilidan olib kirilgan so'zlar, asosan, ta'lim metodikasi, psixologiya, informatika va boshqaruv sohalarida keng tarqalgan. Zamon bilan hamnafas holda ta'limda yangi tushunchalar, o'qitish metodlari paydo bo'lmoqda. Tabiiyki, ular hayotimizga kirib kelishi bilan birga ularni ifodalovchi terminlar ham tilimizga o'zlashtirilmoqda.

Terminlarning o'zlashtirilishi jarayoni, ularning to'g'ri va aniq ishlatilishini ta'minlashda muhimdir. Ingliz tilidan kirgan so'zlar ko'pincha o'zbek tili qoidalariga muvofiq o'zgartiriladi yoki so'zning kontekstiga qarab yangi ma'no olishi mumkin. Bu jarayon pedagogik muammolarni hal qilishda va ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Ingliz tilidan kirib kelgan va o'zlashtirilishda davom etayotgan terminlar ta'lim tizimining barcha bosqichlari, jumladan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va oliv ta'limni o'z ichiga qamrab olmoqda. Bunday terminlar pedagogik faoliyatni osonlashtirish, zamonaviy pedagogik metodlarni tadbiq etish va ta'lim jarayonini yanada samarali qilishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi globallashuv jarayonida interfaol usul, intensiv ta'lim, kompetentlik, empatiya, mnemonika, marketing, onlayn va oflaysn ta'lim, keys-stadi texnologiyasi, kognitiv uslub, inklyuziv ta'lim, integratsiya, imitatsion o'yinlar, sensor nuqson, korreksion sinf, avtoddidaktizm, breystorming (aqliy hujum) kabi terminlar ta'lim tizimida faoliyat yurituvchilar hamda ta'lim oluvchilar orasida keng qo'llanilmoqda. "Feedback", "performance", "assessment" singari atamalar yordamida o'qitish metodlari va baholash tizimi samaradorligini oshirish mumkin.

Inklyuziv ta'lim — alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim<sup>10</sup>. Bu ta'lim metodi bilan birga "sensor"(sezgi) nuqson va korreksion sinf atamalari ham chambarcha bog'liq holda qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qaroriga asosan 2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi.

Oliy ta'lim sohasida keng qo'llanib kelinayotgan kredit va modul atamalari ham yaqin yillarda tilimizga kirib kelgan bo'lsa-da, tizimning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. "Kredit-modul tizimi, bu – ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi"<sup>11</sup>. Kredit ilk bor AQSh universitetlarida XVIII va XIX asrlarda joriy etilgan va talabalarning haftalik akademik yuklanmasini berlgilash va o'quv jarayonlarini liberalizatsiyalash maqsadida yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2020-yil 31-dekabrdagi „Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi qarori asosida

10 <https://lex.uz/uz/docs>

11 [https://uz.wikipedia.org/wiki/Kredit-modul\\_tizimi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Kredit-modul_tizimi)

„Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida“ nizom tasdiqlangan.

Muammoli o‘qitishga asoslangan metodlardan biri Keys-stadi ( case-study) real ijtimoiy, iqtisodiy va bizbes vaziyatlarning tavsifidan foydalanadigan o‘qitish usuli. Bu usul birinchi marta 1924-yilda Garvard biznes maktabida qo‘llangan<sup>12</sup>. G‘arb mamlakatlaridagi ta’lim muassasalarida keyslardan foydalanish o‘quv rejasining 25 % ini tashkil etadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda ham keng qo‘llanilmoqda.

Bu terminlarning o‘zbek pedagogikasi rivojidagi o‘rni. O‘zbek pedagogikasini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlarni yanada bilimli va yuksak salohiyatlari ta’lim berish uchun ilg‘or zamonaviy metodlar va texnologiyalar lozim. Bu borada ingliz tili orqali o‘zlashgan metodlarning o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan bu tushunchalarni ifodalovchi terminlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarimiz dunyo hamjamiyati tan olgan pedagogik uslublarni o‘zlashtirar ekan, pedagogik terminologiyaning boyish jarayoni ham tezlashmoqda va ular milliy pedagogikamizdan o‘z o‘rnini egallamoqda.

Ingliz tilidan olingan terminlar O‘zbek pedagogik terminologiyasining rivojida muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat tilni yangilab, balki ta’lim jarayonini zamonaviylashtirishga yordam beradi. Kelajakda bu terminlarni to‘g‘ri o‘zlashtirish va ulardan foydalanish o‘zbek ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G‘. Terminologiya muammolari //O‘zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perespektivalari: Birinchi Respublika terminologiya konferensiysi materiallari. – Toshkent: Fan, 1988. – B.
2. Дадабоев Ҳ. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. – Б.76
3. Kadirbekova D.X. English – Uzbek terminology of information and communication technologies and its lexicographic features: Doctor of Philosophy. ... diss. avtoref. – Tashkent, 2017. – P. 44
2. Nizomova M. Ingliz va o‘zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarning struktur-semantik xususiyatlari va tarjima muammolari: Doctor of philosophy. ...diss. avtoref. - Termiz, 2022.

---

12 Гозман О., Жаворонкова А., Рубальская А.. Путеводитель по МВА в России и за рубежом. Москва: Begin Group, 2004 — 47-bet.

4. Ermatov I R Formation and development of Uzbek linguistic terms (based on textbooks of general secondary schools). Doctor of Philosophy. ... diss. author's ref. – Tashkent, 2019. – B. 23.
5. Nizomova M. Ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarning struktur-semantik xususiyatlari va tarjima muammolari. - Termiz, 2022.
6. Xudoyberanova D. A concise glossary of terms of linguoculturology. – Tashkent:Turon zamin ziyo, 2015. – P. 41